



2024-yil 22-avgust

184-13-0-F/24

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar  
Kengashi

“Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi to‘g‘risida”gi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qonunining 8 va 20-moddalariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 19-avgust kungi 534-F-son farmoyishining ijrosini ta‘minlash shuningdek, davlatimiz mustaqilligining 33 yillik bayramini nishonlashga munosib tayyorgarlik ko‘rish, **“Mahalla obod – yurt obod”** shiori ostida mahallalar, aholi turar joylari, xiyobonlar, ziyorotgohlar, qabristonlar hamda bolalar maydonchalarini obodonlashtirish tadbirlarini amalga oshirish, sog‘lom turmush tarzi hamda sanitariya-gigienik madaniyatni targ‘ib qilish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida:

1. **2024-yil 24-25-avgust kunlari “Mahalla obod – yurt obod” shiori ostida umumxalq xayriya hasharini** (*keyingi o‘rinlarda – xayriya hashari*) o‘tkazish belgilanganligi ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

**“Mahalla obod – yurt obod”** shiori ostida umumxalq xayriya hasharini o‘tkazish bo‘yicha ishchi guruh (*keyingi o‘rinlarda – ishchi guruh*) tarkibi **1-ilovaga**;

xayriya hasharini yuqori saviyada tashkil etish va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha har bir mahallada amalga oshiriladigan chora-tadbirlar rejasi **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. **Ishchi guruh** (Dauletiyarov), **Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi** (Djumaniyazov), **Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi** (Qurbanbaev), **Qoraqalpog‘iston Respublikasi Yoshlar ishlari boshqarmasi** (Maxsetbaev), **Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi** (Qurbanov), **Nukus shahar va tumanlar hokimliklari O‘zbekiston mahallalari uyushmasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi** (Turmanov) bilan birgalikda xayriya hasharini o‘tkazish doirasida quyidagi tadbirlarni qonunchilikka muvofiq amalga oshirish choralarini ko‘rsin:

mahallalar, aholi punktlari, ko‘p qavatli turar joylar, hovlilar atrofi, guzarlar, xiyobonlar, ziyorotgohlar, qabristonlar, ko‘cha va yo‘laklarni hamda bolalar maydonchalarini tartibga keltirish, daraxtlarni oqlash va butalash ishlarini tashkil etish;

ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlari, ayniqsa, ehtiyojmand, mehr-muruvvatga muhtoj, boquvchisiz qolgan keksa va nogironligi bo‘lgan fuqarolarning **uy-joy sharoitlarini yaxshilashga ko‘maklashish**;

obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishtirokchilarini zarur **texnika vositalari va anjomlar** bilan ta‘minlash;

joylarda obodonlashtirish ishlarini o‘tkazish jarayonida **to‘plangan chiqindilar** mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va boshqa mutasaddi tashkilotlar tomonidan alohida **belgilangan joylarga** olib chiqilishini ta‘minlash;

avtomobil yo‘llari, harakatlanish tig‘iz bo‘lgan ko‘chalar, suv ob‘ektlari, qirg‘oqbo‘yi hududlar va zonalar, qurilish maydonlari, bino va inshootlar tomlari, xavfli ishlab chiqarish ob‘ektlari, shuningdek, insonlarning hayoti yoki sog‘lig‘iga xavf tug‘ilishi mumkin bo‘lgan boshqa joylarda ixtiyoriy tashabbus bilan **tadbirlar va boshqa ishlarni** amalga oshirish **taqiqlanganligini** qat‘iy nazoratga olish;

Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida majburiy mehnatga barham berishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘grisida” 2018-yil 10-maydagi 349-son qaroriga muvofiq xayriya hasharini o‘tkazishda aholining boshqa turdagi jamoat ishlari, shu jumladan, qurilish-ta‘mirlash va qishloq xo‘jaligi ishlariga majburiy jalb etishga qat‘iy yo‘l qo‘yilmasligini ta‘minlash hamda tegishli tashkilotlar hududida obodonlashtirish ishlari **mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalariga qat‘iy rioya etgan holda** amalga oshirilsin.

4. **Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi (Qurbanov) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi (Djumaniyazov), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi (Qurbanbaev), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Yoshlar ishlari boshqarmasi (Maxsetbaev), O‘zbekiston mahallalari uyushmasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi (Turmanov) bilan birgalikda** aholi o‘rtasida respublikada amalga oshirilayotgan obodonlashtirish ishlari, **sog‘lom turmush tarzi hamda sanitariya-gigienik madaniyatni targ‘ib qilish** maqsadida joylarda **davra suhbatlari, tushuntirish ishlari va boshqa tadbirlarni** tashkil etsin.

5. **O‘zbekiston mahallalari uyushmasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi (Turmanov), O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasining Qoraqalpog‘iston Kengashi (Jalmenov), “Nuroniy” jamg‘armasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘limi (Abdijabbarov)**ga xayriya hasharini o‘tkazish doirasida Ishchi guruhga belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ko‘maklashish tavsiya etilsin.

6. **Nukus shahar va tumanlar hokimliklari** belgilangan tartibda:

xayriya hasharini yuqori saviyada tashkil etish va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida **har bir mahallada amalga oshiriladigan chora-tadbirlar rejasini** ishlab chiqib tasdiqlasin;

xayriya hashari davomida har bir ko‘cha va ko‘p qavatli uylarda **amalga oshiriladigan ishlar hajmini “ko‘chabay”** hamda ko‘p qavatli uylarda **“xonadonbay”** shakllantirsin hamda unga **“mahalla yettiligi”** va **faollarini** biriktirsin;

**O‘zbekiston mahallalari uyushmasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi** (Turmanov), **O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasining Qoraqalpog‘iston Kengashi** (Jalmenov), **Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi** (Qurbanbaev), **Qoraqalpog‘iston Respublikasi Yoshlar ishlari boshqarmasi**(Maxsetbaev) bilan birgalikda xayriya hasharini o‘tkazishga **fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari**, ko‘p qavatli uylarni boshqaruvchi tashkilotlar, shuningdek, respublikaning barcha **aholisini, ayniqsa, yoshlarni jalb etishda ixtiyoriylikni ta’minlasin.**

**7. Nukus shahar va tuman hokimliklari O‘zbekiston mahallalari uyushmasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi** bilan birgalikda **bir hafta muddatda** ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlari, ayniqsa, ehtiyojmand, mexr-muruvvatga muhtoj, boquvchisiz qolgan keksa va nogironligi bo‘lgan fuqarolarning ro‘yxatini shakllantirgan holda tuman (shahar) hokimliklari huzuridagi **“Saxovat va ko‘mak”** jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan ularning uy-joy sharoitlarini yaxshilash va moddiy yordam ko‘rsatish ishlarini qonunchilik doirasida amalga oshirsin.

**8. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi** (Torebekov) **Milliy gvardiyaning Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha boshqarmasi** (Yusupov), **Qoraqalpog‘iston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi** (Davletov), **Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi** (Qurbanov) bilan birgalikda xayriya hashari davomida sanitariya-epidemiologiya talablarga rioya etilishi, **jamoat tartibini saqlash va yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash** choralarini ko‘rsin hamda texnik jihatdan soz bo‘lgan **texnika vositalaridan foydalanilishini** nazoratga olsin.

**9. Qoraqalpog‘iston teleradiokompaniyasi** (Bekbauliev) **Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi** (Bekmuratov) hamda boshqa ommaviy axborot vositalariga xayriya hasharini ommaviy axborot vositalarida yoritish tavsiya etilsin.

**10. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o‘rinbosarlari Sh.Dauletiyarov va B.Otemuratovlar O‘zbekiston mahallalari uyushmasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi boshlig‘i S.Turmanov** bilan birgalikda ushbu farmoyishning qonunchilikka muvofiq bajarilishini nazorat qilsin.

**Qoraqalpog'iston  
Respublikasi Vazirlar  
Kengashi Raisi**



**F.Ermanov**

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar  
Kengashining  
2024-yil 22-avgustdagi  
184-13-0-F/24-son farmoyishiga  
1-ilova

**2024-yil 24-25-avgust kunlari “Mahalla obod – yurt obod” shiori ostida  
xayriya hasharini o‘tkazish bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi ishchi  
guruhi**

**TARKIBI**

1.	Sh.Dauletiyarov	-	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining Sanoatni rivojlantirish, kapital qurilish, kommunikatsiyalar va kommunal xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, <i>Ishchi guruhi rahbari</i>
2.	B.Otemuratov	-	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari, <i>Ishchi guruhi rahbari</i>
3.	A.Primbetov	-	O‘zbekiston mahallari uyushmasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi boshlig‘ining o‘rinbosari, <i>Ishchi guruhi rahbari o‘rinbosari</i>
4.	Lavozimi bo‘yicha	-	Nukus shahar va tumanlar hokimlari
<b>Ishchi guruh a‘zolari:</b>			
5.	M.Djumaniyazov	-	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vaziri
6.	B.Torebekov	-	Ichki ishlar vaziri
7.	A.Davletov	-	Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi boshlig‘i
8.	A.Qurbanbaev	-	Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vaziri
9.	R.Sultanov	-	Iqtisodiyot va moliya vaziri
10.	M.Qurbanov		Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vaziri
11.	P.Maxsetbaev	-	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Yoshlar ishlari boshqarmasi boshlig‘i
12.	T.Abdijabbarov		“Nuroniylar” jamg‘armasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘limi raisi
13.	U.Jalmenov	-	O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasining

			Qoraqalpog‘iston Kengashi raisi
--	--	--	---------------------------------

**Izoh:** Ishchi guruh tarkibiga kiritilganlar boshqa ishga o‘tgan taqdirda uning o‘rniga yangidan tayinlangan shaxs ishchi guruh tarkibiga kiritiladi.

**Xayriya hasharini yuqori saviyada tashkil etish va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha har bir mahallada amalga oshiriladigan chora-tadbirlar rejasi**

<b>T/r</b>	<b>Chora-tadbirlar nomi</b>	<b>Amalga oshirish mexanizmi</b>	<b>Mas'ul ijrochilar</b>
1.	Mahallalar, aholi punktlari, ko'p qavatli turar joylar, hovlilar atrofi, guzarlar, xiyobonlar, ziyorotgohlar, qabristonlar, ko'cha va yo'laklarni hamda bolalar maydonchalarini tartibga keltirish, daraxtlarni oqlash va butalash ishlarini tashkil etish.	1. Har bir mahallada amalga oshiriladigan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqib tasdiqlash; 2. Xayriya hasharida aholining keng ishtirokini ta'minlashga qaratilgan targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish; 3. Ko'p qavatli turar joylar, hovlilar atrofi, guzarlar, xiyobonlar, ziyorotgohlar, qabristonlarda obodonlashtirish ishlarini olib borish.	Tuman (shahar) hokimliklari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Yoshlar ishlari boshqarmasi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, mutasaddi vazirlik va idoralar, O'zbekiston mahallalari uyushmasi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi bilan birgalikda
2.	Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlari, ayniqsa, ehtiyojmand, mehr-muruvvatga muhtoj, boquvchisiz qolgan keksa va nogironligi bo'lgan fuqarolarning <b>uy-joy sharoitlarini yaxshilashga ko'maklashish.</b>	1. Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning ro'yxatini shakllantirish; 2. Xonadonlariga borib ularning holidan xabar olish, uy-joy sharoitlarini yaxshilashga ko'maklashish; 3. Xayriya hasharini ommaviy axborot vositalarida yoritib borish.	Tuman (shahar) hokimliklari, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi O'zbekiston mahallalari uyushmasi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi bilan birgalikda
3.	Yoshlarni jalb etgan holda <b>461 ta</b> qabristonlarda obodonlashtirish va ta'mirlash ishlarini amalga oshirish, <b>8 ta</b> ziyoratgoh va <b>13 mingdan ortiq</b> ko'chalarni tartibga keltirish.	1. Qabristonlar, ziyoratgohlarda obodonlashtirish ishlarini olib borish bo'yicha mahalladagi yoshlarni jalb qilgan holda ko'ngillilar guruhlarini shakllantirish; 2. Muqaddas qadamjolar, ziyorotgohlar, qabristonlarda obodonlashtirish ishlarini	Tuman (shahar) hokimliklari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Yoshlar ishlari boshqarmasi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi O'zbekiston mahallalari

		olib borish.	uyushmasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi va Qoraqalpog‘iston musulmonlari qoziyoti bilan birgalikda
4.	Joylarda obodonlashtirish ishlarini o‘tkazish jarayonida <b>to‘plangan chiqindilar</b> mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va boshqa mutasaddi tashkilotlar tomonidan alohida <b>belgilangan joylarga</b> olib chiqilishini ta‘minlash.	1. Obodonlashtirish ishlari o‘tkazilgan joylarda to‘plangan chiqindilarni belgilangan joylarga olib chiqib ketish uchun texnika va transport vositalarini jalb etish. 2. Amalga oshirilgan ishlarni o‘rganib borish, aniqlangan kamchiliklarni joyida bartaraf etish choralarini ko‘rish.	Tuman (shahar) hokimliklari, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi
5.	Avtomobil yo‘llari, harakatlanish tig‘iz bo‘lgan ko‘chalar, suv ob‘ektlari, qirg‘oqbo‘yi hududlar va zonalar, qurilish maydonlari, bino va inshootlar tomlari, xavfli ishlab chiqarish ob‘ektlari, shuningdek, insonlarning hayoti yoki sog‘lig‘iga xavf tug‘ilishi mumkin bo‘lgan boshqa joylarda ixtiyoriy tashabbus bilan <b>tadbirlar va boshqa ishlarni</b> amalga oshirish <b>taqiqlanganligini</b> qat‘iy nazoratga olish.	Mutasaddi tashkilotlar tomonidan insonlarning hayoti yoki sog‘lig‘iga xavf tug‘ilishi mumkin bo‘lgan joylarda tadbirlar o‘tkazilishi taqiqlanganligi bo‘yicha tushuntirish ishlarini olib borish.	Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, tuman (shahar) hokimliklari Milliy gvardiyaning Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha boshqarmasi bilan birgalikda
6.	Xayriya hashari davomida har bir ko‘cha va ko‘p qavatli uylarda <b>amalga oshiriladigan ishlar hajmini</b> “ <b>ko‘chabay</b> ” hamda ko‘p qavatli uylarda “ <b>xonadonbay</b> ” shakllantirsin hamda unga “ <b>mahalla yettiligi</b> ” va <b>faollarini</b> biriktirsin.	1. Xayriya hashari davomida tashkiliy ishlarga ko‘chaboshi va uybo‘shilarni keng jalb etish choralarini ko‘rish; 2. Joylarda “ko‘chabay” va “xonadonbay” amalga oshirilishi belgilangan tadbirlarni “mahalla yettiligi” tomonidan muvofiqlashtirib borish;	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Yoshlar ishlari boshqarmasi, Ichki ishlar vazirligi, Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Davlat soliq boshqarmasi, Kambag‘allikni qisqartirish va



		3. Xayriya hashari doirasida amalga oshirilgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish.	bandlik vazirligi O‘zbekiston mahallalari uyushmasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi bilan birgalikda
7.	Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlari, ayniqsa, ehtiyojmand, mexr-muruvvatga muhtoj, boquvchisiz qolgan keksa va nogironligi bo‘lgan fuqarolarning ro‘yxatini shakllantirgan holda tuman (shahar) hokimliklari huzuridagi “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan ularning uy-joy sharoitlarini yaxshilash va moddiy yordam ko‘rsatish ishlarini amalga oshirsin.	1. Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning ro‘yxatini shakllantirish; 2. Xonadonlariga borib ularning holidan xabar olish, uy-joy sharoitlarini yaxshilashga ko‘maklashish; 3. Xayriya hashari doirasida amalga oshirilgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritish choralarini ko‘rish.	Tuman (shahar) hokimliklari, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi O‘zbekiston mahallalari uyushmasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi bilan birgalikda
8.	Nukus shahri va tuman markazlarida joylashgan barcha ko‘p qavatli uylarning atroflarini tozalash, uylarning yer to‘lalarini tartibga keltirish; ko‘p qavatli uylarning shiferlarini va podyezlaridagi derazalarni o‘rganib chiqib, kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko‘rish.	1. Xayriya hashari davomida tashkiliy ishlarga ko‘chaboshi va uyboshilarni keng jalb etish; 2. Aholi orasida keng ko‘lamli ishtirokini ta‘minlashga qaratilgan targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish; 3. Joylarda “ko‘chabay” va “xonadonbay” amalga oshirilishi belgilangan tadbirlarni “mahalla yettiligi” tomonidan muvofiqlashtirib borish; 4. Xayriya hasharini ommaviy axborot vositalarida yoritib borish choralarini ko‘rish.	Tuman (shahar) hokimliklari, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, mutasaddi vazirlik va idoralar O‘zbekiston mahallalari uyushmasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi bilan birgalikda